

## MUROJAAT USULLARINING SHAKLLANISH OMILLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-21-27-31>

**Hotamov Baxriddin G’ulom o’g’li**

Xitoyshunoslik fakulteti, Xitoy filologiyasi kafedrası

1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: PhD **O. Ochilov**

**Annotatsiya.** *Insonlar suhbatlashayotgan paytda yagona maqsad o‘z fikr va tuyg‘ularini tushuntirib berish, yetkazish emas. Bir vaqtning o‘zida, suhbatdoshning har biri aniq vositalar yordamida boshqasiga bo‘lgan munosabatni, o‘zining jamiyatdagi guruh belgilarini va suhbatdagi o‘z o‘rnini belgilovchi jarayonda ham ishtirok etadi.*

*Muloqot mobaynida suhbatdashlar ma’lum bir ijtimoiy qoidaga amal qilgan holda, o‘zaro murojaat shakllarini tanlaydilar va bu bilan har ikki taraf o‘zaro aloqa va ijtimoiy status, tabaqa munosabatlarini ifodalaydilar. Ana shu ma’noda murojaat shakllarini tadqiq etish sotsiolingvistika fani nuqtai nazaridan ahamiyatli va zarur.*

*“Sotsiolingvistika fanida murojat shakllari - bu kishi o‘zi suhbat mobaynida suhbatdoshiga murojaat qilish uchun qo‘llaydigan so‘zlardir” . Turli oilaga mansub tillarda turli xil murojaat shakllari – murojaat so‘zlari uchraydi va ular til va jamiyatning uzviyligini ifodalaydi.*

*Sotsiolingvistikada so‘zlovchi va murojat qilinayotgan shaxs o‘rtasidagi tafovutni “kuch” va “yaqinlik” doirasida eng xal qiluvchi ahamiyatga ega asosan besh unurni ajratish mumkin. Murojaat qilayotgan shaxs va murojaat qilinayotgan shaxs o‘rtasidagi munosabatga ta’sir qiladigan ushbu besh element quyidagilar: yosh, jins, egallagan mavqe’-lavozim, oilaviy-qarindoshlik aloqalarining mavjudligi hamda kishilarning munosabatidagi emotsional (hissiy) yaqinlik darajasi.*

**Kalit so‘zlar:** *Muloqot, Sotsiolingvistika, multilingual, multidialektik, bilingual ikki tillilik, murojaat shakli, appellativ, nominatum.*

**Abstract.** *When people talk, the goal is not just to express their thoughts and feelings. At the same time, each interlocutor participates in the process of determining his or her relationship to the other, his or her group characteristics in society, and his or her place in the conversation, using specific tools.*

*During the conversation, the interlocutors, following a certain social rule, choose the forms of mutual contact, and thus both parties express their interaction*

and social status, class relations. In this sense, the study of forms of appeal is important and necessary from the point of view of sociolinguistics.

"In the sociolinguistics, forms of address are words that a person uses to address the other person during a conversation." In different family languages, there are different forms of address - address words, and they express the unity of language and society.

In sociolinguistics, the distinction between speaker and speaker can be divided into five main categories, which are the most crucial in terms of "power" and "intimacy." These five factors that affect the relationship between the applicant and the applicant are: age, gender, position, family and kinship, and the level of emotional intimacy between the people.

**Keywords:** Communication, Sociolinguistics, multilingual, multidialectical, bilingual bilingualism, form of appeal, appeal, nominatum.

Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy omillar bilan aloqasini o'rganadigan fan bo'lib, bu omillar qatoriga ijtimoiy kelib chiqish, tabaqa, yosh, jins va hokazolar kiradi. Bu soha tilshunoslik bilimlari ichida nisbatan yosh sanalib, 40 yillik tarixga ega. Himesning ta'kidlashicha, "sotsiolingvistikaning asosiy jihati – u tilni xayotning barcha ijtimoiy sharoitlarida qo'llanishini tadqiq etadi".<sup>1</sup>

Til va til vaziyati o'rtasidagi aloqa, til va madaniyat o'rtasidagi aloqa hamda so'zlarning ijtimoiy ma'nolarini tadqiq etish sotsiolingvistikaning o'z oldiga qo'ygan uch asosiy masalalaridir. Dju Vanjin sotsiolingvistika vazifalari tarkibini quyidagi 5 omil bilan ajratgan :

- bir mamlakat yoki hududda tilning qo'llanish vaziyati va jihatlari, misol uchun, bilingual (ikki tillilik) tizim, multilingual yoki multidialektik tizimning mavjudligi;
- tilning barcha shakllariga xos bo'lgan xarakteristikasi va ularning ijtimoiy funksiyalari;
- muloqot sodir bo'ladigan vaziyat va shunga mos til kodlarining tanlanishi o'rtasidagi aloqa, hamda til kodlari bilan shaxslar aro aloqadagi bog'liqlik;
- jamiyat va turli guruhlarning turli tillar va til variantlariga bo'lgan munosabati va bahosi hamda bundan kelib chiqadigan ijtimoiy ta'sirlar;
- til variantlariga xos qonunniyat va usullarning jamiyat, madaniyat, iqtisod, siyosat va boshqa tillarga nisbatan bog'liqligi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Philipsen, G & M.Huspek, 1985. A Bibliography of Sociolinguistic Studies of personal. Address[J]Anthropological Linguistics. -596.

<sup>2</sup> 祝碗基, 2000, 《社会语言学引论导读》[M]北京: 外语教学与研究出版社. - 86.  
《中国大百科全书 语言文字》, 1988, [Z]北京: 上海: 中国大百科全书出版社.

“Sotsiolingvistika fanida murojat shakllari - bu kishi o‘zi suhbat mobaynida suhbatdoshiga murojaat qilish uchun qo‘llaydigan so‘zlardir”.<sup>3</sup> Turli oilaga mansub tillarda turli xil murojaat shakllari – murojaat so‘zlari uchraydi va ular til va jamiyatning uzviyligini ifodalaydi.

Insonlar suhbatlashayotgan paytda yagona maqsad o‘z fikr va tuyg‘ularini tushuntirib berish, yetkazish emas. Bir vaqtning o‘zida, suhbatdoshning har biri aniq vositalar yordamida boshqasiga bo‘lgan munosabatni, o‘zining jamiyatdagi guruh belgilarini va suhbatdagi o‘z o‘rnini belgilovchi jarayonda ham ishtirok etadi.

Muloqot mobaynida suhbatdashlar ma’lum bir ijtimoiy qoidaga amal qilgan holda, o‘zaro murojaat shakllarini tanlaydilar va bu bilan har ikki taraf o‘zaro aloqa va ijtimoiy status, tabaqa munosabatlarini ifodalaydilar. Ana shu ma’noda murojaat shakllarini tadqiq etish sotsiolingvistika fani nuqtai nazaridan ahamiyatli va zarur. Olimlar Filipsten va Huspekning ta’rifi bilan aytganda, murojaat shakllarini o‘rganish “sotsiolingvistikaning eng muhim muammosi” sanaladi.

Murojaat shakllari va ularning ijtimoiy munosabatlarni ifodalashdagi o‘rniga bag‘ishlangan eng klassik namunaga aylangan va ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan ilk tadqiqot 1960 yilda Broun va Gilman tomonidan nashr qilingan. Broun va uning hamkasblari (Braun va Gilman 1960; Braun va Ford, 1961) xulosasiga ko‘ra, murojaat shakllari eng avvalo so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatga ko‘ra tanlanadi va bu munosabat ikki semantik hajm va o‘lchov orqali tahlil qilinishi mumkin: bular “kuch” (status, mavqe’) va “yaqinlik”.

Sotsiolingvistikada so‘zlovchi va murojat qilinayotgan shaxs o‘rtasidagi tafovutni “kuch” va “yaqinlik” doirasida eng xal qiluvchi ahamiyatga ega asosan besh unisurni ajratish mumkin. Murojaat qilayotgan shaxs va murojaat qilinayotgan shaxs o‘rtasidagi munosabatga ta’sir qiladigan ushbu besh element quyidagilar: yosh, jins, egallagan mavqe’-lavozim, oilaviy-qarindoshlik aloqalarining mavjudligi hamda kishilarning munosabatidagi emotsional (hissiy) yaqinlik darajasi.

Til orqali ifodalanadigan muloqot shaklida murojaat shakli tinglovchi yoki murojaat qilinayotgan shaxsga ilk ma’lumot yetkazish vazifasini o‘taydi. Sotsiolingvist olimlarning murojaat so‘zlarining qo‘llanishiga oid chiqargan xulosalarning eng e’tiborga moligi shunda-ki, har qanday murojaat shaklining qanday sharoit, qaysi o‘rinda qo‘llanishiga oid qat’iy qoidalar mavjudligidir.<sup>4</sup> O‘rinli qo‘llangan murojaat shakli muloqotning silliq va samarali o‘tishini, aksincha, noo‘rin

<sup>3</sup> Versehueren, J.2000. Understanding Pragmatics [M] Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press & London: Edward Arnold Publishers Ltd. - 313 6.

<sup>4</sup> Fasold R.2000.TheSociolinguistics of Language [M] Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press & oxford: Blackwell Publishers Ltd.

shakl esa muloqotni o‘z yo‘sinidan chiqarib, uning kechuvi, natijasiga salbiy ta‘sir o‘tkazishi mumkin. Muloqotning ko‘ngildagidek o‘tishi uchun so‘zlovchi tinglovchining yoshi, lavozimi, mavqei hamda o‘zaro aloqa va suhbat vaziyatini nazarda tutgan holda tanlamog‘i kerak. Tinglovchi so‘zlovchi va murojaat qaratilgan shaxs(lar) o‘rtasidagi munosabatni, o‘zaro kayfiyat va tuyg‘ularni qo‘llanayotgan murojaat shakliga qarab aniqlab olishi qiyin emas.

Murojaat so‘zlarini tasniflashda olimlar turli fikrlarga ega, ammo bu fikrlarning ichida eng keng qo‘llaniladigani – yuzma-yuz murojaatda va yuzma-yuz bo‘lmagan vaziyatda qo‘llanadigan shakllarga ajratishdir. Bu tilshunos yuzma-yuz vaziyatdagi shakllarni appellativ, yuzma-yuz bo‘lmagan vaziyatdagilarni esa nominatum deb ataydi. Misol uchun “爸爸” (baba) va “妈妈” (mama) appellativ murojaat so‘zlari bo‘lsa, “父亲” (fuqin) va “母亲” (muqin) nominatum turiga kiritish mumkin. Biroq ba‘zi murojaat shakllari har ikki turga ham ta‘luqli ma‘noni beradi – “舅舅” (jiujiu) va “老板” (laoban). Li Shusin (1990) esa murojaat so‘zlarini uch guruhga ajratadi – “对称” ducheng, “随称 suy cheng” hamda “自称 zi cheng”. “Dui cheng” turiga kiradigan murojaat shakllari bevosita murojaat qilinayotgan odamga qaratiladi, “随称 suy cheng” kim haqidadir gapirayotganda qo‘llaniladi. Ushbu shakllar inson shaxsan mavjud bo‘lganda ham qo‘llanishi mumkin. “自称 zi cheng” turidagi murojaat so‘zlari so‘zlovchining o‘ziga qaratilgan bo‘ladi. Tian Huygang ularni to‘rt guruhga bo‘lish zarur deb biladi va bu guruhlar qarindoshlikni anglatishiga ko‘ra, ijtimoiy vazifasiga ko‘ra, murojat shakli bo‘lgan ismlar hamda bajaradigan vazifasiga ko‘ra nomlash. Jeng Er esa quyidagi klassifikatsiyani taklif qiladi: so‘z turkumiga ko‘ra, murojaat shakllarini asosiy ikki turga – appellatsion otlar, appellatsion olmoshlar. Appellatsion olmoshlar aslida kishilik olmoshlari bo‘lib, muloqotda shaxslararo munosabatni ifodalamaydi.

Shu sababda ular olmoshlar qatoriga kiritilib, murojaat shakli sifatida alohida tadqiqot talab qilmaydi. Zamonaviy Xitoy tilidagi murojaat shakllari qo‘llanilishi jihatidan asosan ikki turga ajratish mumkin: qarindoshlik so‘zlari va ijtimoiy funksiyaga ega murojaat so‘zlari. Qarindoshlikni anglatadigan murojaat so‘zlari o‘z navbatida ikki turga – haqiqiy qarindoshga nisbatan va aslida qarindosh bo‘lmagan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan so‘zlar. Ijtimoiy funksiyaga ega murojaat so‘zlar esa 6 turga – ijtimoiy murojaat, munosabatni anglatuvchi, mansab va darajani anglatuvchi, kamtarlik va hurmatni ifodalovchi, yaqinlikni ifodalovchi hamda hazil murojaat so‘zlaridir.

## REFERENCES

1. 崔希亮, 1996, 现代汉语称谓系统与对外汉语教学[J] 《语言教学与研究》第2期。
2. 田惠刚, 1998, 《中西人际称谓系统》[M] 北京:外语教学与研究出版社。
3. 郑尔宁, 2005, 近二十年来现代汉语称谓语研究综述[J] 《语文学刊》第2期。
4. Versehueren, J.2000. Understanding Pragmatics [M] Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press & London: Edward Arnold PublishersLtd. – 313 b.
5. Очиллов, О. М. (2016). К ВОПРОСУ О БЭ, СЭН И СИМВОЛЕ В КИТАЙСКОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ. In *Приоритеты мировой науки: эксперимент и научная дискуссия* (pp. 139-143).
6. Очиллов, О. М. (2017). К ВОПРОСУ О ТРАДИЦИОННЫХ СПОСОБАХ ВЫРАЖЕНИЯ В КИТАЙСКОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ. *Социосфера*, (3), 40-47.
7. Очиллов, О. М. (2021). ХИТОЙ АДАБИЁТИДА РАМЗИЙ ОБРАЗЛАР ПАЙДО БЎЛИШИНИНГ ТАРИХИЙ-МАЪНАВИЙ ИЛДИЗЛАРИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(3).
8. Очиллов, О. (2021). ХИТОЙ ФОЛЬКЛОР ҲИКОЯЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 1), 382-391.
9. Назарова, С. А. (2019). Проблема интерференции в процессе обучения китайскому языку. In *Китайская лингвистика и синология* (pp. 294-297).
10. Назарова, С. А. (2020). Трудности освоения лексической системы китайского языка студентами. *Преподаватель XXI век*, (2-1), 148-159.